

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17778329>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISH TIZIMIDA MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

Nurullayeva Mexribon Murotovna

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti magistranti

Pardaeva Zulfizar Alimovna

"Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrasi dotsenti,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etish va nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etish, ularni tan olish va baholash uslubi bo'yicha fikrlar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, baholash, patent, litsenziya, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

KIRISH

Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topayotgan hozirgi sharoitda barcha sohalarda bo'lgani kabi buxgalteriya hisobi sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda milliy hisob tizimini xalqaro andozalar asosida tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Buxgalteriya hisobi sohasini tizimlashtirish, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarining MHXSga o'tishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, moliyaviy hisobotning tashqi sifat nazorati tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, buxgalterlar va auditorlar kasbining huquqiy maqomi va nufuzini mustahkamlash, ularning kasbiy odob-axloq talablariga rioya qilishi, buxgalterlik va auditorlik xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida ta'minlash, buxgalteriya hisobi va audit sohasini raqamlashtirish orqali rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2025-yil 15- sentabrdagi PQ-282-sonli Qaror qabul qilindi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) joriy etishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va yengillik yaratish maqsadida: O'zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga qo'shimchalar kiritish haqida (Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 11-fevralda ro'yxatdan o'tkazildi, (ro'yxat raqami 3607) buyrug'i qabul qilindi, unga asosan:

Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar";

Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) "Asosiy vositalar";

Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BHMS) "Nomoddiy aktivlar"ga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda nomoddiy aktivlarning o'rni muttasil oshib bormoqda.

Ushbu tendensiya raqamli texnologiyalar va intellektual mulkning rivojlanishi, ularning tarqalishi va raqobatning kuchayishi bilan bog'liq. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari intellektual mulk huquqlari, texnologiya, dizayn, brendlar va boshqalar kabi nomoddiy aktivlarni hisobga olish, baholash va boshqarishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotlarda aks ettirilayotgan ma'lumotlar investorlar, menejerlar va boshqa axborotdan foydalanuvshilarning talablariga to'liq muvofiq keladi, deb bo'lmaydi. Shuning uchun nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, hisobning ilg'or uslubiyotini joriy qilish asosida axborotning ishonchliligi, muhimligi va to'liqligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR ShARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlarning fikrlariga ko'ra, nomoddiy aktivlar korxonaning moddiy shaklga ega bo'lmagan va bir yildan ortiq iqtisodiy foyda keltirishi kutilayotgan resurslardir. Ularni sotib olish, mustaqil ravishda yaratish, bepul olish yoki boshqa aktivlarga almashtirish mumkin.

"Nomoddiy aktivlar" (IAS 38) standartini amaliyotda qo'llash bo'yicha keyingi yillarda respublikada ham tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bular, xususan, olimlar D.Matkarimov, I.N.Ismanova, D.K.Qudbieva, Yu.Maqsudova, N.K.Rizaev, S.N.Toshnazarovalardir.

Nomoddiy aktivlar ta'rifiga nafaqat xorijiy olimlar, balki respublikamizdagi qator iqtisodchi olimlar ham o'z yondashuvlari va fikrlarini berib o'tganlar.

Jumladan, iqtisodchi olim R.Dusmuratov tomonidan nomoddiy aktivlar sifatida ularni hisobga olish va audit o'tkazish uslubiyoti shakllantirilgan [1].

I.Ochilovning fikriga ko'ra, "Intellektual mulklar nomoddiy aktivlarning tarkibi bo'lib, xo'jalik faoliyatida uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy xususiyatga ega bo'lmagan mol-mulk ob'ektlaridir"[2].

A.Sotivoldiev esa nomoddiy aktivlarni ushlab bo'lmaydigan va sezib bo'lmaydigan korxonaning aktivlari sifatida ta'riflaydi [3].

TADQIQOT MEDOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida nomoddiy aktivlarni tan olish va baholash hamda

ularni hisobini tashkil etish uslubiyoti asosida ularning ortishini boshlang'ich, amortizasiya va qoldiq qiymatlariga nisbatan ta'sirini baholash usullaridan foydalanildi.

TADQIQOT MAVZUSIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobi ob'ektlari bo'lib, ular jismoniy shaklga ega bo'lmagan, ammo muhim iqtisodiy qiymatga ega va uzoq muddatda korxona uchun daromad keltira oladi.

Nomoddiy aktivlardan foydalanish tashkilotga ishlab chiqarish kapitali tarkibini o'zgartirish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan nomoddiy aktivlarni to'g'ri hisobga olish, tahlil qilish va nazorat qilish ularni samarali boshqarish va maqsadlaringizga erishish imkonini beradi. Biroq, moddiy shakl yo'qligi sababli, nomoddiy aktivlarni baholash qiyin ishdir. Bundan tashqari, nomoddiy aktivlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy jihatlari ham ularni hisobga olish va tahlil qilishda muhim jihatlardan hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Nomoddiy aktivlar” 38-son BHXS: “Nomodiy aktiv – bu moddiy–ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikasiyalanadigan nomonetar aktiv”. shuningdek, mazkur standartda nomoddiy aktivga qo'shimcha quyidagi tan olish mezonlari bilan bog'laydi, ya'ni: aktiv bu shunday resurs bo'lib, birinchidan, u oldingi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadi va ikkinchidan, esa tashkilotga undan kelgusi iqtisodiy naf olish imkoniyatini beradi [4].

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 22-mayda 1485-2-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan 7-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) “Nomoddiy aktivlar” ga muvofiq “Nomoddiy aktivlar – moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan xo'jalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish uchun foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek uzoq vaqt (bir yildan ko'p) ishlatish uchun mo'ljallangan mol-mulk ob'ektlari. moddiy boyliklarga ega bo'lmagan identifikasiya qilinadigan mulk ob'ektlari. mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida ulardan foydalanish yoki uzoq vaqt davomida ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun ushlab turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikasiyalanadigan mol-mulk ob'ektlaridir” [5].

Nomoddiy aktivlar korxona uzoq muddatli mablag'lari tarkibida eng kam likvid xususiyatiga egadir (yoki umuman likvid bo'lmasligi xam mumkin). Boshqa bir jihatdan nomoddiy aktivlar eng ko'p daromad keltiruvchi aktiv sifatida namoyon bo'ladi. Nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (BHHS 38) hamda buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS 7) o'rtasida o'zaro bog'liqlik va farqli jihatlari mavjud:

BHXS 38 ning maqsadi: nomoddiy aktivlar uchun buxgalteriya hisobining yondashuvini belgilab olishga qaratiladi.

BHMS 7 ning maqsadi: korxonalarga tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarning

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirishni uslubiyotini belgilash.

Shuningdek, xalqaro standart xo‘jalik sub'ektidan nomoddiy aktivni faqatgina belgilangan mezonlarga javob berganida tan olishni talab etadi hamda nomoddiy aktivlarning balans qiymatini qanday baholashni belgilaydi va nomoddiy aktivlar to‘g‘risida muayyan ma'lumotlar ochib berilishini talab etadi.

Har ikki standartning maqsadi deyarli bir biriga yaqin bo‘lib, buxgalteriya hisobida yondashuv yoki uslubiyotini belgilash asosida nomoddiy aktivlar haqida to‘liq ma'lumotlarni shakllantirishga qaratiladi.

7-son BHMSning 38 BHXS dan asosiy farqi nomoddiy aktivlarni tan olishdan boshlab ularni balansdan chiqarilgunga qadar bo‘lgan jarayonlar to‘liq qamrab olinganligidir. Standartlarning muhim jihatlaridan biri bu standart qoidalari qaysi holatlarda qo‘llanishidir, ya'ni amal qilish sohasi yoki faoliyat doirasida qaysi standartlarni qamrab olishidir.

Nomoddiy aktivlarni tan olinishi va aks etirilishi bo‘yicha xalqaro standart qoidalarining o‘zaro taqqoslama ma'lumotlari quyida keltirib o‘tiladi.

1-jadval

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida tan olishda xalqaro va milliy standartlarning o‘zaro bog‘liqligi⁵

Nomoddiy aktivlar (7-con BHMC)	Nomoddiy aktivlar (38-con BHXC)
Patent egasining ixtiro, sanoat namunalari va foydali modellarga bo‘lgan mutlaq huquqi	Patentlar
EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga bo‘lgan mutlaq huquq	Kompyuter dacturlari
Integral mikrosxemalarning topologiyalariga bo‘lgan mutlaq huquq	
Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisiga bo‘lgan mutlaq huquqi, shuningdek tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi	Savdo markalari, marketing huquqlari, import kvotalari
Seleksiya yutuqlariga bo‘lgan mutlaq huquq	Mualliflik huquqlari
Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi	Lisenzialar va franshizalar
Mol-mulkdan foydalanish huquqi	
Boshqa nomoddiy aktivlar	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, biz moddiy boyliklarning iqtisodiy mohiyatini 38-son BHXS (IAS) «Nomoddiy aktivlar» nomli xalqaro standartlariga muvofiq ko‘rib chiqamiz.

Nomoddiy aktivlar - korxona tomonidan uzoq muddat mobaynida ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun ushlab turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan

⁵ *N.K.Rizaev, S.Sh.Qodirov. Nomoddiy aktivlar (MHXS 38-son) bo‘yicha amaliy sharh. /Ilmiy-ommabop o‘quv qo‘llanma – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021

identifikasiyalanadigan mol-mulk ob'ektlaridir.(2-jadval).

2-jadval

Nomoddiy aktivlar tarkibi⁶

BHXS 38	BHMS 7
- ilmiy yoki texnik bilim; - yangi jarayonlar yoki tizimlar dezayni; - litsenziyalar; - intellektual mulk; - bozor bilimi va savdo mulklari; - kompyuter dasturi; - patentlar; - avtorlik huquqlari; - tasviriy filmlar; - mijozlar ro'yxatlari; - ipotekaga xizmat ko'rsatish huquqlari; - baliq ovlash litsenziyalari; - import kvotalari; - franchayzinglar; - mijoz yoki ta'minotchi aloqalari; - mijoz sodiqligi; - bozor ulushi va marketing huquqlari.	- ixtiro, sanoat namunalari va foydali modellarga bo'lgan mutlaq huquq; - EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga bo'lgan mutlaq huquq; - integral mikrosxemalarning topologiyalariga bo'lgan mutlaq huquq; - tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutlaq huquq; - tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquq; - seleksiya yutuqlariga bo'lgan mutlaq huquq; - gudvill - tabiiy resurslardan foydalanish huquqi; - yer uchastkasidan foydalanish huquqi; - boshqa nomoddiy aktivlar

Xalqaro standartda (BHXS 38) quyidagi ta'riflar va atamalardan foydalaniladi:

Tannarx - bu aktivni uning xaridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to'langan pul mablag'i yoki pul mablag'i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki, tegishli hollarda aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatdir.

Eskirish hisoblanadigan qiymat - *bu* aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannarxi yoki tannarx o'rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatidir.

Xo'jalik sub'ektiga xos qiymat - bu sub'ekt tomonidan aktivdan davomiy foydalanishidan va foydali xizmat muddati oxirida balansdan chiqarishdan yoki majburiyat so'ndirilganida kutiladigan pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatidir.

Haqqoniy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir.

Qadrsizlanish bo'yicha zarar - bu aktivning balans qiymatining uning qoplanadigan qiymatidan oshadigan qismidir.

Nomoddiy aktiv - bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan aniqlanadigan nomonetar aktiv.

Monetar aktivlar - bu egalikdagi pul mablag'lari va qat'iy belgilangan yoki aniqlanadigan pul miqdorlarida olinadigan aktivlardir.

Nomoddiy aktivning tugatish qiymati - bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan harajatlar chegirilgan holda, sub'ekt ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek aktivning chiqib ketishidan

⁶ N.K.Rizaev, S.Sh.Qodirov. Nomoddiy aktivlar (MHXS 38-son) bo'yicha amaliy sharh. /Ilmiy-ommabop o'quv qo'llanma – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021

oladigan baholangan qiymatidir.

Foydali xizmat muddati - bu:

aktivning sub'ekt tomonidan foydalanishi uchun yaroqli bo'lishi kutilgan davr;
sub'ekt tomonidan aktivdan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) yoki shunga o'xshash birliklar soni.

Nomoddiy aktivlarni tartibga soluvchi xalqaro moliyaviy hisobot standarti (IAS) 38 "Nomoddiy aktivlar".

O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalarning BHMSga muvofiq hisobot tuzishga o'tishi munosabati bilan nomoddiy aktivlarni BHMSga muvofiq hisobga olish va tan olishni ko'rib chiqish zarur.

Hozirgi kunda korxonalarda nomoddiy aktivlar tobora ommalashib bormoqda, biroq ular nomoddiy aktivlar sifatida tan olinishi hamda keyingi buxgalteriya hisobi tufayli buxgalteriya hisobining murakkab elementlaridan biri hisoblanadi.

IAS yoki xalqaro buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirish masalalari ham dolzarbdir.

38-sonli MHXSga muvofiq, "Nomoddiy aktiv - bu jismoniy shaklga ega bo'lmagan va tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalaniladigan identifikatsiya qilinadigan pul bo'lmagan aktivdir.

38-sonli "Nomoddiy aktivlar" IFRSga muvofiq, 12 oydan ortiq foydalanish muddati, aktiv ishlab chiqarish jarayonida yoki oh faoliyatda ishlatilishi kerakligi kabi aniq mezonlar mavjud emas.

38-sonli MXXSni qo'llashdagi qiyinchilik nomoddiy aktivlarni tan olish va hisobga olish mezonlarining noaniqligidadir va ko'plab moddalar tashkilotning o'zi professional mulohazalari asosida qo'llanilishi mumkin. Qiyinchilik shundan iboratki, 38-sonli "Nomoddiy aktivlar" BHMSda nomoddiy aktivlar ro'yxati nomoddiy aktivlar bo'la olmaydigan ob'ektlarni hisobga olgan holda berilgan:

- a) boshqa IFRS standarti talablariga javob beradigan nomoddiy aktivlar;
- b) 32 "Moliyaviy vositalar: taqdim etish" IASda belgilangan ma'nodagi moliyaviy aktivlar;
- c) qidiruv va baholash bilan bog'liq aktivlarni tan olish va o'lchash;
- d) mineral resurslar, neft, tabiiy gaz va shu kabi qayta tiklanmaydigan resurslarni o'zlashtirish va ishlab chiqarish xarajatlari.

Bundan tashqari, agar biron bir boshqa standart nomoddiy aktivlarning ma'lum bir turini hisobga olish tartibini tartibga solsa, korxona ushbu standart o'rniga bunday standartni qo'llaydi.

7-sonli BHMS va 38-sonli MXXS bo'yicha amortizatsiyani hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

7-sonli BHMS ga muvofiq quyidagi usullar mavjud:

- amortizatsiyani hisoblashning yagona (to'g'ri chiziqli) usuli;
- amortizatsiyani bajarilgan ish hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli);

- ikki baravar amortizasiya stavkasi bilan balans usulini kamaytirish;
- yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul).

38-sonli MXXSga muvofiq quyidagi usullar tavsiflanadi:

- yagona hisob-kitob;
- muvozanatni kamaytirish;
- mahsulot birliklari

Amortizasiyani hisoblash usullari o'xshashdir, faqat 7-sonli BXMSga muvofiq, 38-sonli MXXSga qaraganda ko'proq usullar mavjud.

Shuningdek, nomoddiy aktivning amortizasiya qilinadigan qiymatini aniqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va MXXS o'rtasidagi o'xshashlik faktini ham ta'kidlash joiz.

38-MXXSga muvofiq, amortizasiya qilinadigan qiymat ob'ektning dastlabki (almashtirish) qiymatidan qutqarish qiymatini olib tashlagan holda tengdir.

7-sonli BXMSga muvofiq, "amortizasiya qilinadigan qiymat – aktivning boshlang'ich (almashtirish) qiymatidan hisoblangan (baholangan) tugatish qiymatini olib tashlagan summasi".

XULOSA

Xulosa qilishimiz mumkinki, Yuqoridagi takliflarning amalda tatbiq etilishi nomoddiy aktivlarni hisobga olishning shaffofligini (ayniqsa, ularni sotish va boshqa tasarruf etish nuqtai nazaridan) oshiradi va ulardan foydalanish samarasini hisobga olishda ishonchliroq aks ettirilishini ta'minlaydi.

Shu asosda buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy tizimini yanada xalqaro standartlarga yaqinlashtirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-4611-son, 2020 yil 24 fevral.
2. "Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS (AV tomonidan 27.06.2005 y. 1485-son bilan ro'yxatga olingan). "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar" 11-son BHMS (AV tomonidan 28.12.1998 y. 581-son bilan ro'yxatga olingan).
3. "Nomoddiy aktivlar" – 38-sonli MHXS. Mazkur standartdagi aktiv ta'rifi 2018 yilda e'lon qilingan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"da qayta ko'rib chiqilgan aktiv ta'rifi asosida qayta ko'rib chiqilmagan.
4. Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. – T.: O'ME, 2003. – 612 b.
5. Ochilov I. Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. 265-b.
6. Sotivoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: BAMA-2007. 2-tom